

ALISHER NAVOIY IJODIDA YUSUF TIMSOLI

Mohichehra ODAMBOYEVA,

Urganch davlat universiteti 1-kurs talabasi

Shoirlar muhabbat mavzusidagi asarlarida ko‘pincha Sharqda keng tarqalgan mashhur qissalar, dostonlar va ularning qahramonlari nomiga ishora qiladilar. “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Yusuf va Zulayho”, “Tohir va Zuhro” ana shu asarlar sirasiga kiradi. O‘quvchi o‘zi mutoalaa qilayotgan asar qahramoni hayoti, tuyg‘ulari, ma’naviy qiyofasini chuqurroq his qilishi uchun ishora qilingan obrazlar haqida mukammal bilimga ega bo‘lmog‘i kerak. Bir so‘z bilan aytganda, bu asarlarning mazmun-mohiyatini teran o‘zlashtirgan bo‘lmog‘i darkor. Ana shundagina u yoki bu nomga ishorani ko‘rar ekan, uning ko‘z oldida o‘sha qissa, doston mazmuni, qahramonlari taqdiri jonlanib, shoir demoqchi bo‘lgan g‘oya, fikr, tuyg‘uni yorqinroq tasavvur qiladi, chuqurroq anglab yetadi. Badiiy adabiyotda bunday ishora qilish talmih („nazar solmoq”) san’atiga asos bo‘ladi. Atoulloh Husayniy talmeh san’atiga shunday ta’rif beradi: “Talmeh kalomda mashhur qissa yo mashhur nodir she’r yoki mashhur maqolga ishorat etmakdin iborattur”¹. Fikrining dalili sifatida esa Yusuf qissasiga (Ya’qubning ismini eslash orqali), Hofiz g‘azaliga va mashhur maqolga ishora qilingan 3 bayt keltiradi. Qomusiy lug‘atda esa „Talmih san’ati ijodkorga bir ishora vositasida ko‘zda tutilgan fikrni batafsil tarzda ifodalash imkonini beradi”², -deyilgan.

She’riyatimizda Sharqda keng mashhur bo‘lgan sevgi, muhabbat qissalari, ularning qahramonlari nomlariga ishora qilish-talmih san’ati juda ko‘p uchraydi. Ayniqsa, shoirlar ko‘pincha Qur’on suralarida aks ettirilgan afsonalar, hikoyalar qahramonlari: payg‘ambarlar, farishtalar nomlariga ishora qiladilar. Bir so‘z bilan aytganda “Talmeh (“o‘tmishga nazar solmoq”) she’r yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, adabiy asarlar yoki maqollarga ishora qilmoq san’atidir”³.

¹Husayniy A. Badoye us-sanoye. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981. – B. 133.

² Alisher Navoiy. Qomusiy lug‘at. -Toshkent: „Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2016. - B.15.

³Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati - Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 1999. – B. 41.

Yusuf - Qur'onda zikr etilgan payg'ambarlardan biri. 111 oyatni o'z ichiga olgan "Yusuf surasi" qissasi eng go'zal qissa deya ta'riflangan. Yusuf - Kan'onlik Ya'qub(a.s.)ning o'g'li. Qur'on oyatlarida Yusuf(a.s.)ning beqiyos husni, otasi Ya'qub(a.s.)ning unga bo'lgan cheksiz muhabbati, o'z aka-ukalarining Yusuf(a.s.)ga nisbatan g'ayirligi va uni hasad tufayli quduqqa tashlangani voqealari, arziyas chaqa evaziga qul qilib sotib yuborilgan Yusuf taqdiri go'zal tasvirlangan. Kan'ondan Misrga borib qolgan Yusuf(a.s.) bilan Misr Azizining xotini Zulayho o'rtasidagi mojarolar, tuhmat bilan zindonga tushishi, tushlarni to'g'ri ta'bir qilish mo'jizasi, hayoti oxirida sabri tufayli Misrda Aziz bo'lganligi ham Qur'on oyatlari bilan bir qatorda, Navoiyning „Tarixi anbiyo va hukamo“ asarida, Rabg'uziyning „Qissasi Rabg'uziy“ asarida va shu qatorda ko'plab xalq dostonlarida o'z ifodasini topgan. O'z o'g'lini kutib ko'zlari oqargan Ya'qub(a.s.) Yusuf(a.s.)ning ko'ylagi hididan ko'zlari yorishib ketgani voqeasi ham chiroyli yoritilgan.

Bu kabi voqea va hodisalar Navoiy uchun bitmas-tuganmas ilhom va ijod manbai bo'lgan. Adib o'zining „Tarixi anbiyo va hukamo“ asarida Yusuf(a.s.) qissasini qisqacha keltirib, so'zining boshida bu qissani o'zbek tilida nazm shaklida bayon etish rejasi borligini qayd qilib o'tgan: "...Komi xotirg'a bu orzuni kechururkim, inshaalloh, umr omon bersa, turk tili bila-o'q kofurgun varaq uzra xomayi mushkin shamomani surgay. Va bu qissa nazmin ibtido qilib, intihosig'a yetkurgay"⁴.

Navoiy „Xamsa“ dostonini yozar ekan, o'zining husn-malohatda tengi yo'q qahramonlarini, ularga oshiq bo'lganlarning boshiga tushgan ko'rguliklarini ta'rif-u tavsifini berishda Yusuf (a.s.) obraziga ishora qilgani bejiz emas. Ma'lumki, Yusuf jahondagi bor go'zallikning o'ndan to'qqizini o'zida mujassam qilgan inson bo'lgan. Muallif tasvirlagan mahbubani - yorni Yusuf bilan qiyoslab, kerak bo'lsa undan ustun qo'yish Sharq she'riyati uchun xos xususiyatdir. Navoiy ham ana shu an'anaga sodiq qolib, Yusuf talmihini juda ko'p qo'llagan:

Misr shohicha naqdu mol ichra,

Yusufi Misricha jamol ichra⁵.

⁴ Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. -Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2012. -B.553.

⁵ Alisher Navoiy. Sab'ai sayyor. -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2013. -B.451.

Navoiyning „Sab’al sayyor” dostonining 25-bobida shoh Baxrom dushanba kuni uchinchi iqlimdan kelgan musofir hikoyatida Sa’d tasvirini chizar ekan, yuqoridagi baytni keltiradi. Uni jamolda Yusufi Misri, ya’ni misrlik Yusuf-Misr go’zali bilan tenglashtiradi. Bu bilan o’quvchi ko’z o’ngida Sa’dning go’zal tasviri namoyon bo’ladi.

Navoiy „Farhod va Shirin” dostonida ham Yusuf(a.s.) talmihiga murojaat qiladi:

Bo’riga sharh etib gah arzi holin ,

To’kub yosh, yod etib Yusuf jamolin⁶.

Shoir bu yerda Farhodning bo’riga o’z alamlarini aytib dardlashishini tasvirlar ekan, bo’ri haqida so’zlab Yusufi Kan’onni yodga oladi. Rivoyatga ko’ra, Yusufning og’alari uni chohga tashlab, ko’ylagini qonga belab, „Yusufni bo’ri yedi”, deb otalariga eltadilar. Navoiy bu yerda iyhom san’atidan foydalanadi. Zero, yuqoridagi mazmun asosiy maqsad bo’lsa-da, baytda birinchi e’tirof etiladigan ma’no - Farhodning Yusufday go’zal chiroyi bor Shirinni yodlashidir.

„Layli va Majnun “ dostonida ham „Yusuf va Zulayho” qissasiga murojaat qilingan lavhalar mavjud. Akalari tomonidan quduqqa tashlangan va ko’p aziyatlar chekkan, cho’l azobini boshidan kechirgan Yusufning ayanchli taqdiri dostonidagi Qaysning ahvolini yorqin dalillash uchun talmih qilib olingan. Baytda Qaysning yo’qolishi Yusuf bilan bog’liq o’sha voqealarga o’xshatilmoqda:

Andin bo’lub ul guruh afgor,

Itgon Yusufklar talabgor⁷.

(O’z Yusufklari(Qaysga ishora qilingan) diydorini istadilar, bundan bu guruh (qidiruvchilar) ozorlandi, afgor bo’ldi).

Qissadagi Yusufning chohga tashlash voqeasi „Saddi Iskandariy” dostonida Iskandarning Muhit dengizidagi sayohati, uning markaziga yetgani, tortgan qiyinchiliklari tasvirini yaqqol namoyon etishda asos qilib olingan. Iskandar bu sayohatda qariyb bir yil qolib ketadi. Navoiyning dengiz sayohati manzarasining tasviri jonli bo’yoqlarda aks ettirilgan. Ayniqsa, safar davrida Iskandarning ozib ketgani, kasal

⁶Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. -Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2012. -B.608.

⁷ Alisher Navoiy. Layli va Majnun. -Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2013. -B.82.

bo'lishini bayon etuvchi manzaralar o'zining chiroyli tasvirini topa olgan. Yusufga qiyoslanishi ham ana shu sababdandir:

Ne girdobkim, jarf chohi amiq,
Quyosh Yusufni aylagudek g'ariq⁸.

(„Girdob emas, tagsiz chuqur choh bo'lib, quyosh Yusufni g'arq qilar darajada”. Yusufni chohga tashlash voqeasiga ishora qilingan).

Navoiy g'azaliyotida ham Yusuf (a.s.) obrazi tez-tez uchraydi. Aniqroq qilib aytganda, eng ko'p talmih qilingan timsollardan biridir. Ularda ham Yusuf sarguzashtlari oshiq kechmishini yorqin namoyon etishda qulay manba vazifasini o'tagan. Ayrimlarida oshiqning mashuqasi chiroyda Yusuf bilan qiyoslansa, ayrimlarida oshiqning iztirobli, ayanchli ahvolini tasvirlab berishda Yusuf timsoliga murojaat qilinadi. Ba'zan esa Yusuf sog'inchi bilan ko'r bo'lgan Ya'qub(a.s.) obrazi ham oshiq ahvolini ochib berishga ko'mak beradi.

Oshiq yori ba'zan Yusuf bilan tenglashtiriladi, ba'zan esa undan ham ustun qo'yiladi. Bu esa oshiqning yuragini chunon o'rtaydiki, unga davo topolmay to'lg'onadi. Uning husniga to'ymoq esa, umuman, mumkin emas. Chunki undagi chiroy behad ko'p va xo'b:

Husnidin to'ymog' emas mumkinki, behad xo'b erur,
Qo'yg'oy erdim, bo'lsa erdi Yusufi Kan'oncha xo'b⁹.

(Uning husniga to'yish mumkin emas, juda chiroyli, agar u Yusuf Kan'onning chiroyi kabi bo'lsa ham voz kechishim mumkin edi).

Ayrim lavhalarda mashuqa chiroyi tasviri avj nuqtasiga yetadi. Go'yo u Yusuf chiroyi uchun ham andoza vazifasini o'taydi:

Tushta Yusuf hay'atin ko'rdim habibim yodidin,
Go'yi ul qolab, bu ruhi mahz uchun andozadur.(148-bet)

(Tushimda sevgilim yodi birla Yusufni ko'rdim, go'yoki Yusuf uchun, bu sof ruh uchun u qolip, andozadir).

⁸ Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. -Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2012. -B.467.

⁹ Alisher Navoiy. Qaro ko'zim. -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1988. -B.65. Keyingi o'rinlarda sahifasini ko'rsatish bilan cheklaniladi.

Yor kiprigining oshiq ko'ngliga joylanishini Yusufning chohdagi holatiga qiyoslanishi ham go'zal talmihga asos bo'lgan:

Kirpiging tushkan ko'ngul ichra xayoling, ey pari,

Go'yo Yusuf nuzul etmish chahi Bobil aro. (25-bet)

(Ey pari, sening xayoling va kipriging meni ko'nglimga tushgan, go'yo Yusuf Bobil chohiga tushib qolgani kabi).

Yusufning qul bozorida sotilganini, go'zal chehrasi bilan hammani xaridor qilganini qissa syujetidan bilamiz. Navoiy ta'rifida esa Yusuf go'yo oshiqning husnda betakror yoriga qul bo'lmoq istagida o'zini husn bozoriga solgan:

G'arazi buki, habibimg'a qul o'lg'ay Yusuf,

Husn bozorida har nechaki o'zin sotadur (159-bet).

(Niyati shuki, Yusuf sevgilimga qul bo'lish uchun har safar o'zini husn bozorida sotadi).

Yana bir g'azalda Misrda zindonband qilingan Yusuf chehrasini ko'rib, unga maftun bo'lgan mahbuslarning zindon devorlariga suratini naqsh qilganliklari talmih uchun asos qilib olingan. Bunda mashuqaning tengsiz go'zallikka ega yuzi ishq dardi ila bamisoli zindon kabi qorong'u bo'lgan ko'ngilga naqsh qilingani o'z ifodasini topgan:

Orazing naqshiki chiqmas tiyra ko'nglumdin dame,

Qildilar go'yoki Yusuf suvratin zindonda naqsh (316-bet).

(Yusuf suratini zindon devorlariga naqsh qilib chizganlari kabi, yuzing rasmi zindon kabi qorong'u ko'nglumga naqshdur).

Ko'ylak detali ham qissaning juda ko'p o'rinlarida qahramonlar xarakterini ochib berishda, voqealar ta'sirchanligini yanada oshirishda qurol vazifasini o'tagan. Ma'lumki, Yusuf quduqqa yalang'och tashlanadi. Uning bo'ynida osig'liq turgan tumor shaklidagi yoki qamish nayi ichiga solib osib qo'yilgan Ibrahim(a.s.)ning kiyimi Jabroil (a.s.) tomonidan jannatdan olib chiqilib Ishoq(a.s.)ga qoldirilgan, u esa Ya'qub(a.s.)ga berilgan. Quduqda yotgan Yusufga Jabroil(a.s.) o'sha ko'ylakni kiydirib qo'yadi. Yusuf dardida ko'r bo'lib qolgan Ya'qub(a.s.) davosi ham ana shu ko'ylak hididadir. Qur'onning „Yusuf“ surasidagi 96-oyatda shunday deb yozilgan: „Bas, xushxabarchi kelib, uni (ko'ylakni Ya'qubning) yuziga tashlagach, u ko'radigan bo'lib qoldi. „Sizlarga

men Allohning (mehribonligi haqida) sizlar bilmaydigan narsalarni bilurman, demaganmidim”, - dedi u¹⁰. Navoiyning yana bir g‘azalida xuddi o‘sha voqealarga ishora qilingan:

Ko‘nglagingdinkim topar jon dam-badam Yusuf isi,

Ey azizim, men ham ul ko‘nglak aro bir torment (532-bet).

(Sening ko‘ylagingda Yusuf isi dam-badam jon topadi, ey azizim, men ham shu ko‘ylakning bir toriman).

Keyingi misralarda ham Navoiy Yusuf chehrasini o‘z qahramoniga qiyoslash uchun asos qilib oladi. Tarovatli suman, ya’ni yasmin guliga nisbat berilgan Yusufchehra yor Navoiyni ham maftun etadi, fikrini tortadi:

Navoiy rishtayi fikri chekar ma’ni sumanbo‘yin,

Xush ul tojirki, Yusuf chehra ko‘rguzgay tanobidin (544-bet).

(Yaxshi sotuvchiki Yusuf kabi chehrasini shu yerdan ko‘rsatadi, uni ko‘rgan Navoiy yasmin guli deb fikr rishtasini bog‘laydi).

Ishq azobidan xastalangan, behad dard chekayotgan oshiq uchun yor xabari, u qanday ahvolda bo‘lishidan qat’iy nazar, har qanday xushxabardan a‘loroqdur. Navoiy buni quyidagicha talqin qiladi:

Ne gul-u xandon, ne Yusufdur, ne Iso mujdasi,

Topti bir mahjur o‘lar holatda jonon mujdasin (575-bet).

(Hijronda qolgan oshiq uchun yorning o‘lar holatda topilgan xabariga na ochilgan gul, na Yusuf, na Iso xushxabari tenglasha oladi).

Xullas, Navoiy ijodi o‘zining rang-barangligi, betakrorligi bilan o‘zbek adabiyotida munosib o‘ringa ega. Ana shu betakrorlikni ta’minlovchi asosiy unsurlardan biri o‘z o‘rnida ishlatilgan she’riy san’atlardir. Yusuf talmihi ham Navoiy ijodida muhim o‘rin egallagan. Navoiy qarashlarini, uning badiiy mahoratini to‘laqonli anglab yetishda asosiy vositalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

¹⁰ Shayx Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. - Sirdaryo: 2023. - B. 247.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Husayniy A. Badoye us-sanoye. – Toshkent: Adabiyot va San’at,1981. – B. 133
- 2.Alisher Navoiy. Qomusiy lug‘at. -Toshkent: „ Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2016.
- 3.HojiahmedovA. Mumtoz badiiyat malohati - Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 1999.
- ⁴.Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. -Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2012.
- ⁵.Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor. -Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2013. -B.451.
- 6.Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. -Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2012. -B.608.
- 7.Alisher Navoiy. Layli va Majnun. -Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2013. -B.82.
- 8.Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. -Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2012. -B.467.
- 9.Alisher Navoiy. Qaro ko‘zim. -Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1988. –B.65.
- 10.Shayx Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. - Sirdaryo: 2023.